



UDK:328.(543)

Ildar AZIZOV,

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlikni boshqarish oliy maktabi dotsenti, PhD
E-mail: ildar8707@gmail.com

S.f.n., PhD J.Yusubov taqrizi asosida

LOBBISTIK VA DIPLOMATIK TA'SIRNING XALQARO MAYDONDAGI STRATEGIK AHAMIYATI

Аннотация

Maqolada parlament diplomatiyasining lobbistik va diplomatik ta'sir mexanizmi tahlil qilingan. Lobbizm milliy manfaatlarini ilgari surishda parlament a'zolarining xalqaro hamkorlari va jamoatchilikka ta'sir ko'rsatish faoliyati sifatida izohlangan. Qonunchilik qarorlarining barqarorligi tashqi siyosatda uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishi hamda ba'zan diplomatik jarayonlarga to'siq bo'lishi misollar orqali yoritilgan. Shu bilan birga, parlament diplomatiyasining siyosiy plyuralizm va ochiqlikka asoslangan zamonaviy diplomatiya tizimidagi ahamiyati ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Parlament diplomatiyasi, lobbizm, xalqaro munosabatlar, qonunchilik, tashqi siyosat.

СТРАТЕГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЛОББИСТСКОГО И ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО ВЛИЯНИЯ НА МЕЖДУНАРОДНОЙ АРЕНЕ

Аннотация

В статье рассматривается концепция парламентской дипломатии как одного из современных инструментов международных отношений, её отличия от классической дипломатии, а также рост роли парламентов в формировании внешней политики. Авторы анализируют различные определения парламентской дипломатии, указывая на её функциональные аспекты: представительство граждан, контроль над исполнительной властью, участие в международных форумах и сотрудничество с гражданским обществом. Отмечается, что парламентская дипломатия превращается из вспомогательной формы внешней политики в самостоятельный канал влияния, особенно в условиях глобальных вызовов (терроризм, миграция, климат). Также рассматриваются институциональные формы парламентарной дипломатии: межпарламентские ассамблеи, дружеские группы, наблюдательные миссии и др. Критические замечания связаны с тем, что в странах с мажоритарной системой парламенты могут быть не вполне независимы, что ограничивает их роль.

Ключевые слова: парламентская дипломатия, лobbизм, международные отношения, законодательство, внешняя политика.

THE STRATEGIC SIGNIFICANCE OF LOBBYING AND DIPLOMATIC INFLUENCE IN THE INTERNATIONAL ARENA

Annotation

The article analyzes lobbying and diplomatic influence as a key mechanism of parliamentary diplomacy. Lobbying is defined as the activity of parliamentarians aimed at persuading foreign colleagues, international organizations, and the public to support certain positions and decisions in the promotion of national interests. Special emphasis is placed on the stability of legislative decisions, their long-term impact on foreign policy, and their potential to either stabilize or obstruct diplomatic dynamics. The study highlights parliamentary diplomacy as an institution based on political pluralism, transparency, and broad democratic representation, making it an important instrument in the international relations system of the 21st century.

Key words: Parliamentary diplomacy, lobbying, international relations, legislation, foreign policy.

Kirish. Parlament diplomatiyasining ikkinchi muhim mexanizmi sifatida lobbistik faoliyat yoki diplomatik ta'sir xizmat qiladi. Bu jarayon rasmiy tartiblardan tashqarida amalga oshirilsa-da, milliy manfaatlarini xalqaro maydonda ilgari surishda strategik ahamiyatga ega. Ushbu kontekstda lobbizm deganda parlament a'zolarining xorijiy hamkasblarini, xalqaro tashkilotlar va jamoatchilik vakillarini ma'lum siyosiy pozitsiyalar yoki xalqaro maqomni tan olish, shuningdek muhim qarorlarni qabul qilishga ishonitirishga qaratilgan harakatlari tushuniladi[1].

Parlament a'zolarining lobbistik faoliyati samaradorligi ularning xalqaro tarmoqlarda, partiyalararo birlashmalarda ishtirok etishi hamda norasmiy aloqalarini qo'llab-quvvatlashi bilan chambarchas bog'liq. Globallashuv sharoitida ular nafaqat xorijiy hamkasblari, balki fuqarolik jamiyati vakillari, ommaviy axborot vositalari va ekspert doiralari bilan ham faol muloqotga kirishmoqda. Bu esa parlament faoliyati ommaviy diplomatiya va strategik axborot

hamkorligi bilan uyg'unlashgan ko'p bosqichli diplomatiyaning yangi turini shakllantirmoqda.

Kanadalik olim R. Katler parlament diplomatiyasini rasmiy va ommaviy diplomatiya o'rtasidagi muhim ko'prik sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, parlament a'zolari transchegaraviy muammolarni hal qilishda samarali ishtirokchi bo'la oladi. Bir tomondan, ular davlat siyosiy tizimiga integratsiya qilingan bo'lib, o'z tashqi faoliyatlarida an'anaviy institutlarga tayanadi; ikkinchi tomondan esa, diplomatik protokol bilan cheklanmagan holda davlat tuzilmalaridan ko'ra erkinroq harakat qilishi mumkin[2].

Qonunchilik qarorlarining muhim jihatlardan biri — ularning barqarorligi va ijro hokimiyati aktlariga nisbatan tezkor qayta ko'rib chiqishning murakkabligi. Hukumatlar o'z tashqi siyosiy yo'nalishini tez o'zgartira olishi mumkin, parlament qonunlari esa ko'p hollarda uzoq muddatli ta'sirga ega bo'ladi[3]. Bu esa xalqaro munosabatlarda barqarorlikka ham, dinamikaga to'siqqa ham aylanishi mumkin. Masalan, AQSh Kongressi 1974 yilda qabul qilgan Jekson — Venik

tuzatishi[4]. U SSSRda emigratsiya cheklovlariga qarshi yo'naltirilgan bo'lib, muayyan davlatlarga savdo sanksiyalari qo'llanilishini nazarda tutardi. Shu bilan birga, Kuba haqidagi «Erkinlik va demokratiyani qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Qonun ham parlament darajasida qabul qilinib, iqtisodiy embargoni bekor qilishni juda qiyinlashtirgan.

Bunday holatlar qonunchilik qarorlari tashqi siyosatga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi[5]. Sanksiyalar siyosatida bu ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bois, ayrim davlatlarda qonunchilik qarorlarini qayta ko'rib chiqish mexanizmlari joriy etilgan. Masalan, Yevropa Ittifoqida tashqi iqtisodiy cheklovlar muntazam qayta ko'rib chiqiladi va ularning uzaytirilishi YeI institutlari darajasida kelishiladi.

Shu ma'noda parlamentlar xalqaro munosabatlarda parlament diplomatiyasidan tashqari ham strategik ahamiyatga ega sohalarida ishtirok etadi. Qonunchilik qarorlari xalqaro hamkorlikning uzoq muddatli doirasini belgilaydi, ammo ularni mukammallashtirish uchun moslashuvchanlik mexanizmlari ham talab etiladi.

Parlament diplomatiyasi klassik diplomatiyadan farqli ravishda siyosiy plyuralizm, ochiqlik va keng jamoatchilik vakilligiga tayanadi. Shu sababli XXI asrda parlament diplomatiyasi xalqaro munosabatlar tizimining muhim va samarali vositasiga aylanmoqda. Shuningdek, Ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarni mustahkamlashda Parlament diplomatiyasining asosiy funksiyalaridan biri davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama aloqalarni muntazam muloqot, tajriba almashish va parlament darajasidagi hamkorlik orqali rivojlantirishga ko'maklashishdir. Vakolatli mandatga ega parlament a'zolari madaniy va siyosiy tizimlar o'rtasida muayyan ko'priikka aylanib, xalqaro hamkorlik uchun barqaror va ochiq asos yaratishadi. Parlament assambleyalari, do'stlik guruhlar va ikki tomonlama tashriflar nafaqat siyosiy aloqalarni mustahkamlaydi, balki hukumatlararo mexanizmlar doirasida samarali hal qilish qiyin bo'lgan masalalarni muhokama qilish uchun institutsionallashtirilgan platforma ham yaratadi[6].

Vositachilik va nizolarni barqaror yo'l bilan hal qilishga ko'maklashishda Parlament diplomatiyasi nizolarni tinch yo'l bilan bartaraf etishda katta salohiyatga ega[7]. Ijroiya hokimiyatidan nisbatan mustaqilligi tufayli parlament a'zolari ayrim hollarda an'anaviy diplomatik kanallar cheklangan yoki to'sib qo'yilgan vaziyatlarda nizodagi taraflar o'rtasida vositachi sifatida chiqishlari mumkin. Parlament uchrashuvlarining norasmiy xarakteri keskinlikni pasaytirish va ishonch muhitini yaratishga yordam beradi. Ayrim hollarda parlament missiyalari rasmiy hukumat muzokaralariga nisbatan samaraliroq bo'lgan, ayniqsa tezkorlik va egiluvchanlik talab etilgan vaziyatlarda. Demokratiya va inson huquqlarini ilgari surishda Parlament a'zolari demokratik institutlarni mustahkamlash va inson huquqlari, qonun ustuvorligi hamda so'z erkinligi kabi universal qadriyatlarini targ'ib qilishda muhim hissa qo'shadi. Bu faoliyat xalqaro parlament tashkilotlarida Jahon parlamentara ittifoqi, Yevropa

Kengashi Parlament assambleyasi va YeXHT Parlament assambleyasida ishtirok orqali amalga oshiriladi[8]. Parlament delegatsiyalari saylovlarni kuzatishda qatnashadi, inson huquqlari bo'yicha hisobotlarni muhokama qiladi va demokratik jarayonlarni qo'llab-quvvatlovchi rezolyusiyalar qabul qiladi, ayniqsa siyosiy vaziyati noaniq mamlakatlarda. Parlament formatidagi bunday tashabbuslar qo'shimcha legitimlik va keng jamoatchilik ko'magini ta'minlaydi[9].

Milliy manfaatlarni ilgari surishda Parlamentlarning tashqi siyosiy faoliyati, shuningdek, milliy manfaatlarni ilgari surish va himoya qilishga yo'naltirilgan. Bu jarayon tashqi savdo, energetik xavfsizlik, mintaqaviy barqarorlik va migratsiya siyosati kabi masalalarni o'z ichiga oladi[10]. Parlament diplomatiyasi bu ma'noda davlatning rasmiy siyosatini to'ldirib, ayni paytda uning alternativ qirralarini shakllantiradi. Parlament a'zolari milliy ustuvor yo'nalishlarni xalqaro hamjamiyatga yetkazishlari, parlamentara forumlarda muzokaralar olib borishlari, murojaatlar tashabbusi bilan chiqishlari va qo'shma deklaratsiyalar qabul qilinishiga ko'maklashishlari mumkin. Bu ayniqsa global siyosatda ishtirokini kuchaytirishga intilgan kichik davlatlar uchun muhim ahamiyatga ega[11]. Jamoatchilik muhokamasini ta'minlashda Parlament diplomatiyasining ustunliklaridan biri xalqaro muhokamalarga jamoatchilik fikrini integratsiya qilish qobiliyatidir. Parlamentlar siyosiy muloqot va ochiqlik maydoni sifatida tashqi siyosiy tashabbuslarni muhokama qilish uchun sharoit yaratadi, shu orqali transparentlik va hisobdorlikni ta'minlaydi[12]. Parlament eshituvlari, ishchi guruhlar va ochiq yig'ilishlar orqali deputatlar fuqarolik jamiyatini qaror qabul qilish jarayoniga jalb qiladilar, bu esa ayniqsa demokratik tizimlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini hisobga olish va tashqi siyosiy chaqiriqlarga muvozanatli yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi. Madaniy va ta'limiy almashinuvni kengaytirishda Parlament diplomatiyasi davlatlar o'rtasida madaniy va ta'limiy hamkorlikni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Parlament delegatsiyalari doirasida ko'pincha ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, talabalar almashinuvi, madaniy merosni asrab-avaylash va til siyosati masalalari muhokama qilinadi. Parlament qo'mitalari va ishchi guruhlar stipendiya dasturlari yaratish, qo'shma ilmiy konferensiyalar o'tkazish va madaniyatlararo loyihalarni qo'llab-quvvatlash tashabbusi bilan chiqishadi. Bunday sa'y-harakatlar gumanitar aloqalarni mustahkamlaydi va davlatning xalqaro maydonda ijobiy imijini shakllantiradi.

Xulosa. Parlament diplomatiyasida lobbistik va diplomatik ta'sir milliy manfaatlarni xalqaro maydonda ilgari surishning muhim vositasi hisoblanadi. Qonunchilik qarorlari barqarorligi tufayli tashqi siyosatda uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi, bu esa diplomatik jarayonlarda barqarorlikni ta'minlashi yoki aksincha, to'siq yaratishi mumkin. Shu bois parlament diplomatiyasi siyosiy plyuralizm va ochiqlikka tayangan holda xalqaro munosabatlarda samarali vosita sifatida muhim o'rin egallaydi.

ADABIYOTLAR

1. Stavridis S. Parliamentary Diplomacy: A Review Article // International Journal of Parliamentary Studies. 2021. Vol. 1. No. 2. P. 227–269. DOI: 10.1163/26668912-bja10027.
2. Cutler R. The OSCE's Parliamentary Diplomacy in Central Asia and the South Caucasus in Comparative Perspective // Studia Diplomatica. 2006. No. 2. Vol. LIX. P. 79–93.
3. V.T.Yungblyud, D.V. Ilin. Popravka Djeksona-Venika i razvitie sovetko-amerikanskix otnosheniy v 1972-1975 gg. Vestnik MGIMO-Universiteta. 2020. 13(2). S. 7-39. Vyatskiy gosudarstvennyy universitet. DOI 10.24833/2071-8160-2020-2-71-7-39.
4. Obrashenie v svyazi s prinyatiem v SSHA Zakona «O svobode i demokraticeskoy solidarnosti s Kuboy». 19 marta 1996 g. <http://council.gov.ru/activity/documents/5516/>.
5. Mochalova A.I. Tema transformatsii vneshneekonomicheskoy politiki YeS v sovremennoy nauchnoy literature // Nauchno-analiticheskii vestnik IE RAN. 2024. №4. S. 58-69. DOI: 10.15211/vestnikieran420245869.

6. Mochalova A.I. Tema transformatsii vneshneekonomicheskoy politiki YeS v sovremennoy nauchnoy literature // Nauchno-analiticheskiy vestnik IE RAN. 2024. №4. S. 58-69. DOI: 10.15211/vestnikieran420245869.
7. Cooper, A. F., and Hocking, B. (2004). Governments, Non-governmental Organisations and the Recalibration of Diplomacy. In C. Jönsson & R. Langhorne (Eds.), *Diplomacy*.
8. Simpson, S. (1987). *Education in Diplomacy*. In S. Simpson (Ed.), *Education in Diplomacy: An Instructional Guide*. Lanham: University Press of America.
9. Stavridis, S., and Jančić, D. (2016). Introduction: The Rise of Parliamentary Diplomacy in International Politics. *The Hague Journal of Diplomacy*, 11(2-3): 105-120.
10. Fiott, D. (2011). *On the Value Parliamentary Diplomacy*. Madariaga Paper, Vol. 4, No. 7, Brussels: Madariaga College of Europe Foundation. Jančić, D. (2014).
11. Cutler, R. M. (2006). The OSCE's Parliamentary Diplomacy in Central Asia and the South Caucasus in Comparative Perspective. *Studia Diplomatica*, 29(2): 79-93.
12. Nitoiu, C., and Sus, M. (2017). The European Parliament's Diplomacy – a Tool for Projecting EU Power in Times of Crisis?